



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
BUYURUQ**

2024-yil “14” iyun

117-sonli

Toshkent sh.

**Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik
kengashining yangi tarkibini
tasdiqlash to‘g‘risida**

Vazirlikning 2020-yil 20-aprelda qabul qilingan “Vazirlik qoshida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish haqida”gi 108-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Jamoatchilik kengashining yangi tarkibini shakllantirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Jamoatchilik palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5980-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi “2021–2025-yillarda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-sonli Farmoni talablaridan kelib chiqib, vazirlik va uning tasarrufidagi tashkilotlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibi **ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

Belgilab qo‘yilsinki, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi maslahat organi hisoblanadi va 2020-yil 20-apreldagi 108-sonli buyruq bilan tasdiqlangan Nizomga asosan ish yuritadi.

2. Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi L.Muxammadnazarov:

Jamoatchilik kengashining ish rejasi va vazifalar taqsimotini **bir hafta muddatda** qaytadan ko‘rib chiqib, kengash faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish;

Jamoatchilik uchun dolzarb bo‘lgan masalalar yuzasidan o‘rganish olib borib, har chorakda Kengash yig‘ilishlarida tanqidiy ruhda muhokama qilishni ta’minlasin.

3. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan vazirlikning 2020-yil 20-apreldagi 108-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinnbosari T.Butunbayev zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiasining 2024-yil 12-iyundagi 1-438/24-sonli xati.

Vazir

Sh.Xamrayev

